

**CHET TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA JAHON  
TAJRIBASI****Saloxiddinova Sayyora Aliqulovna***O‘zDJTU Ingliz tili 1 – fakulteti**Umumiy Tilshunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi**Mail: [sayyorasaloxiddinova0109@gmail.com](mailto:sayyorasaloxiddinova0109@gmail.com)**Tel: 95 047 44 49*

**Annotatsiya :** Zamonaviy , rivojlangan davlatlarda tilga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolada interaktiv o‘quv yondashuvlari va ularning til ixlosmandlari uchun qanchalik foydali ekanligi , chet tillarini samarali o‘rganishda jahon tajribalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Chet tili, interaktiv darslar, Innovatsion yondashuvlar, CBI, kross, CLT, virtual haqiqat (VR),

**Abstract:** In modern , developed countries , interested in and attention to language are growing day by day . This article examines interactive learning approaches and their usefulness for language enthusiasts , as well as global experiences are effectively learning foreign languages.

**Key words:** foreign language , interactive lessons , innovative approaches , CBI , cross , CLT , virtual real (VR) .

**Аннотация:** В современных развитых странах интерес и внимание к языкам растут с каждым днем . В данной статье рассматриваются интерактивные подходы к обучению , их полезность для любителей языков , а также мировой опыт в эффективном изучении иностранных языков .

**Ключевые слова:** Иностранный язык , интерактивные уроки , инновационные подходы , CBI , кросс , CLT , виртуальная реальность (VR)

**Kirish:** Chet tilini o‘qitish innovatsion yondashuvlar , zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metotlarni birlashtiradi . Bundan tashqari chet tillarini o‘rganishda an‘anaviy metodlardan ham hozirgi kungacha foydalanib kelinmoqda . To‘g‘ri an‘anaviy metodlar uzoq yillar davomida yig‘ilgan tajribalar asosida chet tilini o‘rganishda asosiy ro‘l o‘ynab kelgan . Lekin bugungi kunda uning o‘rnini interaktiv o‘qitish tizimi egallamoqda . Sababi biz virtuallashgan olamda zamon bilan hamnafas yashamoqdamiz va bu bizga til o‘rganishning oson va qulay yechimlarini o‘rgatmoqda . Chet tilini o‘qitishda jahon

tajribasi juda keng va xilma-xildir. Bilamizki turli mamlakatlar va ta'lim tizimlarida o'zlariga xos metodologiyalar va yondashuvlardan foydalanadilar.

Interaktiv o'quv yondashuvi o'quvchi onlayn platforma va raqamli o'quv materiallar orqali til o'rganishi mumkin bo'lgan yondashuv usuli. Masalan: "Khan academy" o'quv platformasi. Bu onlayn platforma yangi chet tillari, matematika, ilm-fan, va boshqa fanlarni bepul o'rganish uchun yaratilgan bo'lib, insonlar bu platforma orqali sifatli va bepul darslarni topa oladi. Bunday platformalar bilan nafaqat yangi til o'rganiladi, shu bilan birga o'rganayotgan tilli orqali yangi bilimlarni orttirib, foydali qo'llanma materiallarni topa oladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Ibrat Farzandlari - xorijiy tillarni bepul o'rgatishga mo'ljallangan loyiha doirasida Ibrat Academy ilovasi ham ishlab chiqildi. Shu kabi bepul yaratilgan ilovalarga Duolingo, Rossetta Stone, Babbel kiradi. Yuqoridagilari bepul va foydalilari hisoblanadi. Bundan tashqari pulli bo'lgan foydali til o'rgatuvchi ilovalar ham talaygina. Memrise ushbu platformaning to'liq funksiyalarini ochish uchun premium versiyada ro'yxatdan o'tishingiz kerak bo'ladi. Oyiga - \$ 8.99, Bust bussy veb-saytiga ko'ra, ilovaning premium versiyasida 22 soatni muvaffaqiyatli bajarish universitetda til o'rganishning bir semestriga teng. Buning sababi, ilova kundalik hayotga integratsiya qilish uchun yetarlicha oson kurslarni yaratishga qaratilgan. Millisekundlar ham muhim ahamiyat kasb etadigan tezkor zamonda, dunyo bilan hamqadam bo'lishdagi muhim omillardan biri - bu kommunikatsiya va til vositasi sanaladi. Yuqorida sanab o'tilgan platformalar esa yangi til o'rganichda eng yaxshi yondashuvlardan biridir. Odamlar bu kabi interaktiv yondashuvlardan foydalanishni boshlaganlarida texnologiyaga asoslangan ta'limga ham duch kelishadi. Texnologiyaga asoslangan ta'lim o'zi nima? Chet tillarini o'rganishda insonlarga qulaylik yartib beruvchi ta'lim deb ham atasa bo'ladi. Bilamizki texnologiya odamlarning qiyin mashg'ulotlarini yengillshtirishda yordam beradi. Aynan shu texnologiya ta'lim bn uyg'unlashsa, ta'limdagi qiyinchiliklar ham osonlashadi, nafaqat osonlashadi balki ta'limga til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Texnologiyaga asoslangan ta'limga - raqamli vositalar, videodarslar, podkastlar, slaydlar, audiodarslar kiradi. Tillarni tez va oson o'rganishda yana bir qancha usullar mavjud. Kommunikativ til o'qitish usuli (CBI) Bu yondoshuv talabalarga tilni real hayotda muloqat qilish uchun o'rganishga yordam beradi. Bunda asosan til o'rganuvchilar amaliy jihatdan ko'proq shug'ullanadi. Bu ularga ravon muloqat qilishda ko'proq yordam beradi. Immensiv usul til o'rganuvchilarni chet tilida muloqot qiladigan muhitga joylashtirish usuli hisoblanadi. Bu chet tilida yaxshi muloqot qilishga yordam beradi. Misol uchun aynan o'rganayotgan chet tilini o'sha davlat, millat bilan o'rgansa, muhitni chindan his qilib,

to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘sha davlatning odamlari ya‘niy neytivlar bilan muloqot qilsa tilni organishdagi moslashuv tezlashadi. Kross-kultural yondashuv: Bu uslub tilni o‘rganish jarayonida boshqa madaniyatlarni ham o‘rganishdir. Bu esa o‘z navbatida talabalarni global fikrlashiga va madaniyatlararo muloqot qilishiga yordam beradi. Bu yondashuv bir necha asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi tamoyil axborotniqayta ishlash. Bu tamoyilda o‘quvchilar ma‘lumotni o‘rganib, uni tahlil qiladi qayta ishlaydi va yaxshi tushunishga harakat qiladi. Ikkinchi tamoyil - ijtimoiy va kontekstual o‘rganish. Bu jarayonda o‘quvchilar tilni iltimoiy muloqot jarayonida va kontekst asosida o‘rganadi, ya‘ni odamlar o‘rtasidagi muloqot chet tilini yanayam ko‘proq mashq qilishga va uni yaxshilashga yordam beradi. Audiovizual materiallardan foydalanish Chet tilidagi filmlar, musiqalar orqali til o‘rganishni qiziqarli va samarali qilish usulidir. Bu usul talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Shu kabi innovatsion yondashuvalar bilan jahon tajribalari til o‘rganishning yuqori sifat va samarasini ko‘rsatgan. Gaplarimga isbot tariqasida rivojlangan davlatlarning qo‘llab kelgan usullarini ta‘kidlab o‘taman.

Finlandiya – U yerda bolalar maktabgacha yoshdan ikki yoki undan ortiq tilni o‘rganishga jalb qilinadi. Bunda Finlandiya immersio dasturlardan foydalanadi. Bundan tashqari Finlandiya maktablarida bir necha horijiy til o‘rganish majburiy.

Bu-multilingual siyosatidir.

Germaniya - ta‘lim borasida juda rivojlangan davlat bolib ,tillarni o‘rganishda yetakchi hisoblanadi.Ularda ham bolalar erta yoshdan kamida 2ta chet tiilarini o‘rganadi . ” Erasmus+ ” dasturi tilni amaliy o‘rganish uchun boshqa mamlakatlarda ta‘lim olish dasturi hisoblanadi .Bu bilan germaniyaliklar tilni tezroq o‘rganish mumkunligini yana bir bor tajribalar orqali ko‘rsatgan .

AQSH da o‘zlashtirishga asoslangan o‘quv dasturidan foydalanishadi. Har bir o‘quvchining o‘ziga mos metodlar qo‘llaniladi . Tashqi muhitdagi tajriba degan uslub ham AQShda ko‘p foydalaniladi . Unda talabalrga sayohat qilish va madaniy tadbirlar orqali o‘rganish imkoniyatini beradi .

Xulosa qilganda, shuni aytish joizki, chet tillarini o‘qitishda innavatsion yondashuvlardan foydalanish o‘rganuvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatini rivojlantiradi va nutq jarayonini yaxshilaydi. Bunday usullar va o‘yinlar ‘texnologik qurilmalar til ga bo‘lgan qizqishni yanayam oshiradi . Samaradorlikni kuchaytiradi . Chet tillarini o‘rganishda turli hil grammifikatsiyalar ,interaktiv yondashuvlar , immenseive usullar til o‘rganishdagi muammolarning eng to‘g‘ri yechimi hisoblanadi. Til o‘rganish insonlarga juda ko‘p foydalar olib keladi . Ammo bu ko‘nikmalarni shakillantirish oson

ish emas. Til o‘rganishda malakali ustoz, samarali startegiya, o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, tog‘ri yondashuv usullarini bilish birlamchi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2014). An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell.
2. Coulmas, F. (1997). The Handbook of Sociolinguistics. Blackwell Publishers.
3. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin Books.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992). Davlat tili to‘g‘risidagi qonun.
5. O‘zbek tilining rivojlanishi va davlat tili sifatidagi maqomi haqidagi rasmiy hujjatlar va ilmiy maqolalar.